
TALABALARDA AQLIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Amonova Nargiza Muxtarovna,
Mustaqil izlanuvchi, Biokimyo kafedrasida assistenti,
Buxoro davlat tibbiyot instituti
<https://orcid.org/0009-0006-3870-7484>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.027>

НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ УМСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Амонова Наргиза Мухтаровна,
Ассистент кафедры биохимии, соискатель
Бухарский государственный медицинский институт

DIRECTIONS FOR IMPROVING MENTAL COMPETENCE IN STUDENTS

Amonova Nargiza Mukhtarovna,
Independent researcher, assistant of the Department of Biochemistry,
Bukhara State Medical Institute

Annotatsiya: Maqolada talabalarda aqliy kompetentlikni takomillashtirishning bir qator jihatlari ko'rib o'tilgan. Xususan aqliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari, takomillashtirish yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar kompetentligini aniqlash nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shaxsning o'z-o'zini anglashi va uning qadriyatlarga munosabatlari, bu qadriyatlarni tanlay bilishi, ularni asoslash va umume'tirof etilgan ijtimoiy me'yorlar nuqtai nazaridan, shuningdek ularning ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini namoyon qilishi, shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy xulq-atvorining aniq maqsadlari va ijtimoiy yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, baholash, ma'lumot, kreativlik, intellektual salohiyat, yoshlar, bilim va ko'nikma.

Аннотация: В статье рассматривается ряд аспектов повышения умственной компетентности студентов. В частности, обсуждались виды умственной компетентности и этапы их развития, направления совершенствования. Определение компетентности студентов является чрезвычайно важным вопросом в высших учебных заведениях. Потому что активность студентов в образовательном процессе тесно связана с их компетентностью. Самосознание человека и его отношение к ценностям, способность выбирать эти ценности, обосновывать их и демонстрировать способность оценивать их с точки зрения общепринятых социальных норм, а также с точки зрения своего социального статуса, поведения человека. Социальное поведение имеет важное значение в определении конкретных целей и социальной направленности персонажа.

Ключевые слова: компетентность, оценка, информация, креативность, интеллектуальный потенциал, молодежь, знания и навыки.

Abstract: The article discusses a number of aspects of improving students' mental competence. In particular, the types of mental competence and their stages of development, directions for improvement were discussed. Determining the competence of students is an extremely important issue in higher education institutions. Because the activity of students in the educational process is closely related to their competence. A person's self-awareness and his attitude to values, the ability to choose these values, justify them and demonstrate the ability to evaluate them in terms of generally accepted social norms, as well as in terms of their social status, the behavior of a person, social behavior is important in determining the specific goals and social orientation of the character.

Keywords: competence, assessment, information, creativity, intellectual potential, youth, knowledge and skills.

KIRISH. Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Butun dunyoda o'ziga xos tarzda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalari faoliyatiga qo'yiladigan talablar ularning kasbiy, shaxsiy va intellektual salohiyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishga zarurat borligidan dalolat beradi.

Bugungi kundagi islohotlarning asosiy maqsadi ham yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. Shu jihatdan ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiklol g'oyasini o'zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh kasb egalarini shakllantirish lozim. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin.

Yangi O'zbekiston rivojlanish yo'lida, davlat tomonidan qo'yilgan yangi maqsadlar va vazifalarga ega bo'lgan bugungi oliy ta'lim muassasalar bu yo'nalishda, ya'ni oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy-pedagogik vazifalarini o'zgartirishda va oliy ta'lim tizimini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan eng yaxshi, ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalarni tarqatishda ham etakchi bo'lishga chorlangan [1].

METODLAR

Talabalarining aqliy kompetensiyasini rivojlantirish, ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish orqali salohiyatli, qo'yilgan muammoni hal qila olish layoqatiga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiyalash va texnologik jihozlashga jamiyatimizning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi masalaga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Amaldagi ta'lim yo'nalishi Davlat ta'lim standartlarida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan umumiy malaka talablarida tayyorlanayotgan kadrlar o'z sohasiga oid qarorlarni mustaqil qabul qila olishi, raqobatbardosh kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'z ishini ilmiy asosda tashkil etishi hamda mustaqil holda o'z bilim va malakasini oshirib borish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi qayd etilgan [2-3]. Oliy ta'lim tizimida bu xususiyatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda innovatsion ta'lim alohida o'rin egallaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar kompetentligini aniqlash nihoyatda muhim masala sanaladi. Chunki talabalarining ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda Rossiya va ayrim qo'shni davlatlarning OTMlarida talabani mutaxassis sifatida shakllanganlik darajasini uning o'qish davridagi faoliyatini kompleks baholash orqali amalga oshirish taklif qilinmoqda. Bu holda talabaning quyidagi ishlardagi ishtiroki hisobga olinadi:

- kurs ishlari himoyasi natijasi;
- bitiruv malakaviy ish himoyasi natijasi;
- talabaning ilmiy-tadqiqot ishlardagi ishtiroki;
- talabaning turli tanlov, ko'rgazma va boshqa yig'inlardagi qatnashuvi;
- pedagogik va ishlab chiqarish amaliyot yakunlari;
- talabaning fan olimpiadalari, respublika va xalqaro konferensiyalar, ilmiy seminarlardagi ishtiroki va erishgan natijalari;
- talabaning sport va boshqa sohalarda erishgan yutuqlari. Yuqoridagi ko'rsatkichlarni kompleks baholash natijasida talabaning kompetentligini aniqlash mumkin deb hisoblanadi.

Kompetentlik – bu bilimlar, ko'nikmalar, ma'lumotlilik, o'z-o'zini shaxs sifatida namoyon qilish, ro'yobga chiqarish, o'zining dunyodagi o'rni, shular natijasida o'z kasbining yashashdan maqsadini oliy maqsadi deb bilish, shaxsga yo'naltirilganligi bois, uning imkoniyatlarini to'laligicha safarbar qilish, atrofdegilar tan olishi manbai hisoblanadi.

Zamonaviy vaziyatda aqliy kompetentlik yoshlarni oliy ma'lumot olishida rivojlanadi, chunki

talabalar jamoasi yosh o'spirin hayotidagi muhim davrdir. Oliy ta'lim samaradorligini oshirish, kasbiy va ijtimoiy kompetentligi zamonaviy milliy jamiyatini rivojlantirish uchun strategik resurslarni o'z ichiga olgan yosh mutaxassislarni tayyorlash va sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy sohada samarali hamkorlikni, turli sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanishni ta'minlaydi.

Aqliy kompetentlik - bu insonning individual fazilatlarining murakkab dinamik integral tizimi bo'lib, uning umumiy qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar va qoidalar, qadriyatlar, shuningdek jamiyat pozitsiyalarini hisobga olgan holda ijtimoiy muhitda harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydi. Talaba ijtimoiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasiga ega bo'lishi, shuningdek, jamoa, uni o'rab turgan atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim tizimida aqliy kompetentlik ta'lim tizimining akademik va kasbiy profillari va darajalarini tavsiflash uchun yagona (izchil) til sifatida tushuniladi [1]. Ushbu matnda "kompetentlik" tushunchasi xabardorlik (bilim, savodxonlik, xabardorlik), tayyorgarlik (tayyor bo'lish), tayyorlik, ma'suliyat, malakali, professional kabi tushunchalar bilan sinonimdir.

Xususan, B.V.Avvo, I.G.Agapov, V.A.Adolf, I.G.Arkipov, N.A.Axtamzyan, V.V.Kraevskiy, L.A.Petrovskiy, N.Y.Tairova, A.V.Xutorskiylarning tadqiqotlarida ta'lim va tarbiya sohasida kompetentlikni shakllantirish, yosh mutaxassislarni qayta tayyorlash jarayoni ko'rib chiqiladi.

Talabalarning aqliy kompetentligining mohiyati va tuzilishini tushunishga umumiy nazariy yondashuvlar V.M.Basova, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, R.X.Tugusheva, I.L.Fedotenko asarlarida bayon etilgan.

Talabalarning aqliy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish, uning mohiyati, mazmuni va tuzilishi masalari bo'yicha esa S.S.Baxteeva, S.Z.Goncharova, A.A.Demchuk, N.V.Lyaxovalar ishlarida ko'rsa bo'ladi. Kompetentlikga asoslangan yondashuv va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish muammolari M.A.Bondareva, O.Y.Jidkix, M.S.Jirova, A.V.Mamatova, Y.M.Melnik, A.N.Nemtseva, P.R.Noskov asarlarida o'z aksini topgan [4].

Kompetentlik tushunchasi, qoida tariqasida, shaxsga qaratilgan tushuncha sifatida ishlatiladi:

- yosh mutaxassisning faoliyatga tayyorligi, ijtimoiy texnologiyalar va kasbiy faoliyat vositalariga aniq egalik qilish, tashkilot tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal qilish qobiliyatida ifodalangan ta'lim natijasi;


- atrofda odamlarni o'zgartirish, maqsadlarini belgilash va ularga erishishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va tajribalarni birlashtirish shakllarining o'ziga xosligi;

- kasbiy faoliyatni amalga oshirishni va ma'lum natijalarga erishishni ta'minlaydigan xususiyatlar (motivlar, e'tiqodlar, munosabat) to'plami;

- talabalarning faoliyati natijalarining rahbariyat yoki butun jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Kompetensiya muammosining ta'lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari.

Интеллектуал фаолиятнинг yana bir ko‘rsatkichi talabalarning jarayonda o‘zlari ishtirok etish istagi paydo bo‘lishidir. Bu narsa dars davomida ko‘tarilgan masalalarni muhokama qilishda o‘rtoqlarining javoblariga qo‘shimchalar kiritishda o‘z aksini topadi [5].

Aqliy kompetentlik muhim omillardan hisoblanadi ya’ni o‘rganish shu bilan birga hayotiy ko‘nikmalarda shaxsning shakllanishini ta’minlaydi. Aqliy kompetentlikni rivojlantirishning muhim manbai o‘qitishda o‘rganilayotgan materialning mazmuni hayotiy misollar orqali yoritib berish hisoblanadi [4]. Bunda dars jarayonida talabalarning hayotiy ko‘nikma va tajribalari orqali fanning mohiyatini ochib berishga intilishadi. Shu orqali talabalarda aqliy kompetentlik quyidagicha shakllanadi:

1. Bilim, ko‘nikma, ko‘nikmalar bilan qurollantirilladi.
2. Talabalarning dunyoqarashi, axloqiy, g‘oyaviy, siyosiy, estetik fazilatlarini tarbiyalashga hissa qo‘shadi.
3. Ularning bilish qiziqishini rivojlantiradi.
4. Talabalarning potentsial imkoniyatlarini aniqlaydi va amalga oshiradi.
5. Izlash va ijodiy faoliyat bilan tanishtiradi.
6. Kuzatishlar va ularning asosida o‘tkazish qobiliyati xulosalarni shakllantirish.
7. Mustaqil ravishda modellashtirish va qurish qobiliyati gipotezalar;
8. Eksperimentni mustaqil ravishda o‘rnatish qobiliyati va unga yangi bilimlarni olish uchun asos.
9. Hodisalar va kuzatilgan faktlarni tushuntirish qobiliyati mavjud nazariy bilimlarga asoslanib, bashorat qiling nazariyalardan kelib chiqadigan natijalar.

Aqliy kompetentlikning muhim yo‘nalishlari quyidagi mezonlarning kombinatsiyasi bilan belgilanadigan darajani o‘z ichiga oladi:

- bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi (bilim va ko‘nikmalar sifati);
- bilim va ko‘nikmalarning diapazoni va kengligi;
- maxsus vazifalarni bajarish qobiliyati;
- o‘z ishini oqilona tashkil etish va rejalashtirish qobiliyati;
- nostandart vaziyatlarda bilimlardan foydalanish qobiliyati texnika, texnologiya, tashkilot va mehnat sharoitlari o‘zgarganda tezda moslashishdir [5].

XULOSA

Talabalarining aqliy kompetentligi mezonlari orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

1. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va uning qadriyatlarga munosabatlari, bu qadriyatlarni tanlay bilishi, ularni asoslash va umume’tirof etilgan ijtimoiy me’yorlar nuqtai nazaridan, shuningdek ularning ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini namoyon qilishi; shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy xulqatvorining aniq maqsadlari va ijtimoiy yo‘nalishini belgilashda.
2. Shaxs o‘ziga xos sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, xilma-xillikda birlikni ko‘rishi, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishi kerak.
3. Shaxsning turli sohalarida mustaqil tanlov qilish, ushbu tanlov uchun javobgar bo‘lish, harakat va muloqotning innovatsion ijtimoiy ahamiyatga ega variantlarini modellashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi; o‘zini o‘zi boshqarish, havaskorlik faoliyati, o‘z-o‘zini tarbiyalashda subyektivlik natijasi shaxsning mustaqilligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vlinov V.I. (2004). Практическая подготовка будущих учителей: прогнатика, перспективы. Москва. ИОО. МОНРФ. 1-9 стр.
2. Bermus A.G. (2005). Проблемы и перспективы реализации компетентного подхода в образовании. www.eidos.ru. <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>.
3. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. (2010). Pedagogical competence. Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, https://mp.uu.se/documents/432512/1163536/NSHU+Eng_inlaga%5B1%5D.pdf/353a7746-fd1a-678a-f0f9-8cffe89036ad.
4. Слостенин В., Исаев И., и др. (2006). Педагогика. Учебная пособия. 576 стр.
5. Елегина В.С., Похлебаев С.М. (2012). Компетентный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе. Фундаментальное исследование.. № 3.